

## SIFATLI O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INTERAKTIV BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7663109>



ELSEVIER

**Fazliddin Botirovich Qurbonov**

O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i  
Angren Universiteti



**Abstract:** Mazkur maqolada oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayoni mazmuni, kreativlik belgilari, kreativlikni rivojlanish davri va bosqichlari yoritib berilgan. Shuningdek pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhi hamda samarali metod va vositalarning ahamiyati yoritib berilgan.

**Keywords:** talaba, kreativ kompetentlik, ijodiy fikrlash, kreativ kompetentlikni rivojlantirish, kreativlik belgilari, malakalar, metod, vositalar.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 19-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

## USE OF INTERACTIVE MANAGEMENT TECHNOLOGIES IN ORGANIZING A QUALITY EDUCATIONAL PROCESS

**Fazliddin Botirovich Kurbanov**

Head of the educational and methodological department  
Angren University



**Abstract:** This article describes the content of the educational process, signs of creativity, the period and stages of creativity development aimed at the development of creative competence in students of a higher educational institution. Also, the group of skills and the importance of effective methods and tools, which allow organizing creative activity in pedagogues, are highlighted.

**Keywords:** student, creative competence, creative thinking, development of creative competence, signs of creativity, skills, method, tools.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 19-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

O'quvchi-talabalar tomonidan bajariladigan interaktiv mashg'ulotlar va topshiriqlar interaktiv yondoshuvlarning o'zagi bo'ladi. Interaktiv mashg'ulotlar va topshiriqlarning an'anaviy mashg'ulotlar va topshiriqlaridan asosiy farqi shundaki, ular nafaqat o'rganilgan materialni mustahkamlashga balki yangisini o'rganishga qaratilganligidir.

Zamonaviy pedagogika interaktiv yondoshuvlarning bir butun zahirasi bo'lib, ularning orasidan quyidagilarni ajratsa bo'ladi:

- ijodiy topshiriqlar;
- kichik guruhlarda ishlash;

- o'rganuvchi ta'lim o'yinlari (rolli, imitatsiya, ishbilarmonlik va ta'lim o'yinlari);
- jamoatchilik resurslaridan foydalanish (mutaxassisni taklif etish, ekskursiyalar);
- ijtimoiy loyihalar va ta'limning boshqa auditoriyadan tashqari usullari (ijtimoiy loyihalar, musobaqalar, radio va gazetalar, filmlar, spektakllar, ko'rgazmalar, taqdimotlar, qo'shiqlar va ertaklar);
- chigil yozdi mashqlar;
- yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interaktiv ma'ruza, ko'rgazmali qurollar, video va audiomateriallar bilan ishlash, "O'quvchi -talaba o'qituvchi o'rnida", "Hamma bir-birini o'qitadi, mozaika (nafis arra), savollardan foydalanish, Suqrotano dialogi);
- murakkab va bahsli masalalarni va muammolarni muhokama qilish ("O'ringni egalla (fikrlar shkalasi)", POPS-formula, tasviriy texnikalar, "Yakka o'zi-ikkala-hamma birga", "Karusel" (oto'yin, chalkashlik), "Televidenie uslubida tok-shou bahsi", debatlar, simpozium);
- muammolar yechimi ("Echimlar daraxti", "Aqliy hujum", "Chigal ishlar tahlili", "Muzokaralar va mediatsiya", "Zinapoyalar va varrakchalar").

Ijodiy topshiriqlar. Ijodiy topshiriqlar deganda biz o'quvchi-talabalardan ijodkorlikni ta'lab qiluvchi, bir nechta yondoshuvlarga ega bo'lgan, tarkibida noma'lum katta yoki kichik elementlaridan iborat topshiriqlar majmuisini tushinamiz. Ijodiy topshiriq har qanday interaktiv usulning mazmuni, asosini tashkil etadi. Ijodiy topshiriq (ayniqsa amaliy va o'quvchi-talaba hayotiga yaqini) ta'lim jarayoniga ma'no bag'ishlaydi, o'quvch-talabalarni ijodkorlikka undaydi. Ijodiy topshiriqlargi javobning noma'lumligi va o'quvchi-talabaning shaxsiy tajribasi va o'z hamkori, do'sti tajribasiga asoslangan o'zining shaxsiy "To'g'ri" yechimini topish imkoniyati, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari va pedagogning hamkorligi o'quvch-talabalarga muloqoti uchun poydevor yaratishga imkoniyat beradi. Ijodiy topshiriqlarni tanlash pedagog uchun ijodiy topshiriq hisoblanib, quyidagi mezonlarga javob berishi lozim. Ijodiy topshiriqlar:

- yagona murakkablikdagi javob yoki yechimga ega bo'lmasligi;
- o'quvchi-talabalar uchun amaliy va foydali bo'lishi;
- o'quvchi-talabalar hayotiga bog'langan bo'lishi;
- o'quvchi-talabalarda qiziqish uyg'otadigan bo'lishi;
- ta'lim maqsadlariga imkon qadar xizmat qiladigan bo'lishi lozim.

Agar o'quvchi-talabalar ijodiy topshiriqlar bilan ishlab o'rganmagan bo'lsalar, avval oddiy topshiriqlarni, keyin esa tobora murakkablashib boradigan topshiriqlarni tanlash lozim bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash. Kichik guruhlarda ishlash – bu eng ommabop strategiyalardan biri bo‘lib, u barcha o‘quvchi-talabalarni topshiriqni bajarishda ishtirok etishga, hamkorlik malakalari va shaxslararo muloqot (xususan, faol eshitish ko‘nikmasi, umumiy fikrni va paydo bo‘layotgan kelishmovchiliklarni hal qilish)ning amaliy tomonini rivojlantirishga imkon beradi. Buning hammasi odatda katta jamoada ishlaganda bu imkoniyatlar bo‘lmaydi. Kichik guruhda ishlash – masalan mozaika, debatlar, jamoatchilik tinglovlari, imitatsiyalarning barcha turlari va boshqalar kabi ko‘pgina interaktiv usullarning ajralmas qismidir.

Kichik guruhda ishlashni tashkil etishda quyidagi jihatlariga diqqatni qaratish lozim bo‘ladi. O‘quvchi-talabalar guruh topshiriqlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga egaligiga ishonch hosil qilish kerak. Bilimlarning yetishmasligi juda tezda o‘zini salbiy natijasini bildiradi – o‘quvchi-talabalar topshiriqni bajarish uchun harakat qilmaya qo‘yadi. Kichik guruhga berilayotgan topshiriqlar imkoni boricha aniqroq bo‘lishiga harakat qilish kerak. Guruhning bittadan ortiq yoki ikkita opshiriqni, juda aniq bo‘lsa ham, idrok etish ehtimoli kam, shuning uchun opshiriqlarni doskada va (yoki) kartochkalarda yozab qo‘yish maqsadga muvofiq. Guruhga topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt berish kerak.

Hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi – “Men aytganimday qil” yoki “Men kabi qil” klassik tamoyilga asoslanmagan pedagogikadir. Hamkorlik pedagogikasida avval tayanch maqsad qo‘yib olinadi, keyin esa uning bajarilishi bo‘yicha o‘quvchi-talabalardagi ishonch qo‘llabquvvatlanadi. Asosiysi – tayanch maqsadni bajarishga yaqinlashtiruvchi amaliy ishlar hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasining asoschilari haqli suratda o‘tgan asrning 80-yillari faol ta‘limining yo‘lboshchilari bo‘lgan Amonashvili Shalva Aleksandrovich, Shatalov Viktor Fedorovich, Lisenkova Sofya Nikolaevna va boshqalar kabi pedagog-novatorlar hisoblanishadi. Hamkorlik pedagogikasining g‘oyaviy ilhomlantiruvchisi Soloveychik Simon Lvovich bo‘lib kelgan.

Pedagog-novatorlar har qanday o‘quvchi-talaba hamkorlik pedagogikasida ishlay olishini izhor qildilar. Pedagog o‘quvchi-talabaga o‘zining individualligini saqlab qolishiga yordam berishi, ehtiyojlarini aniqlashi, uning intellektual va ahloqiy qobiliyatlarini rivojlanishida yordam berishi kerak. Hamkorlik pedagogikasining asosiy g‘oyalari quyidagilar bo‘lib, xususan:

- o‘quvchi-talabani eng yaqin rivojlanish bo‘yicha o‘qitish;
- majburlamasdan o‘qish;
- materialni yodlab olishni istisno qilish uchun tayanch sxema ko‘rinishida joylashtirilgan hal qiluvchi so‘zlar, belgilar to‘plami;
- quvib o‘tish g‘oyasi;
- yirik bloklar g‘oyasi;
- tanlov erkinligi g‘oyasi;

- dialogik fikrlash g'oyasi;
- auditoriyaning intellektual ko'rinishi g'oyasi;
- o'qituvchilar va o'quvchi-talabalarning birgalikdagi faoliyati g'oyasi;
- mativatsiyani shakllantirish g'oyasi. Hamkorlik pedagogikasida ta'limni demokratlashtirishning yo'llari va yo'nalishlari: • o'qitishning variativligi asoslandi;

- ta'lim mazmunini yangilash, o'quv reja va fan dasturlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha taklif qilindi;

- o'quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiriladi;
- o'quvchi-talabalarning kun yarmini tashkil qilish;
- o'quvchi-talabalarning o'z-o'zini hurmati qilish g'oyasi.

O'qitishning o'yin usuli – bu shartli vaziyatlardagi o'quv jarayoni shakli bo'lib, u jamoatchilik tajribasini uning barcha ko'rinishlarida: bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, emotsional-baholash faoliyatida o'zlashtirishga qaratilgandir.

Metodikaning belgilari va xususiyatlari. O'qitishning o'yin usuli o'yin kabi xususiyatlar xosdir:

- o'qituvchi ko'rsatmasi bo'yicha bajariladigan, ammo uning diktatisiz va o'quvchi-talabalar tomonidan hohishi bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat jarayonidan qoniqish hosil qilgan holda erkin rivojlantiruvchi faoliyat;

- ijodiy, improvizatsiya qilingan, o'z xarakteriga ko'ra faol faoliyat;
- emotsional zo'riqqan, ko'tarilgan, musobaqaviy, raqobatdosh faoliyat;
- o'yin mazmunini va jamoatchilik tajribasi elementlarini aks ettiruvchi to'g'ri va bilvosita qoidalar doirasida kechuvchi faoliyat;

- inson hayotining professional yoki ijtimoiy muhiti modellashtiriladigan, imitatsiya xarakteriga ega bo'lgan faoliyat;

- harakat joyi va davomiyligi, zamon va vaqt doiralarida ajratib qo'yilgan faoliyat. (V.Kruglikov, 1999).

O'yinning eng muhim xususiyatlariga o'yinda ham o'quvchi-talabalar ham kattalar guyo eng ekstremal vaziyatlarda, qiyinchilikni yengib o'tish kuchi chegarasida harakat qilishi dalilni hisoblaydilar. Buning ustiga faollikning bunchalik yuqori darajasiga, ular deyarli doimo ko'ngilli, majburlamagan holda erishadilar.

Yuqori faollik, o'yinning emotsional bo'yalganligi ishtirokchilar ochiqligining yuqori darajasini ham tug'diradi. Inson ochiladi, o'yinda psixologik himoyani uloqtiradi, ehtiyotkorlikni yo'qotadi, o'zi bilan o'zi bo'ladi. Bu o'yin ishtirokchisi o'yin vazifalarini yechadi, ularga qiziqadi va shuning uchun boshqa tomondan qarama-qarshi harakatga tayyor emasligi bilan tushunilishi mumkin. Diqqatning ma'lum bir tarqoqligi vaziyatida ba'zan insonni uning uchun yangi dunyoqarashni

qabul qildirishga ishontirish osonroq ekanligini eksperimentlar ko'rsatdi. Insonning diqqatini bironta unchalik ko'p bo'lmagan narsa bilan boshqa tomonga tortilsa, ishontirish samarasi yanada kuchliroq bo'ladi (V.V.Boyko, 1983). Qandaydir darajada bu o'quvchitalabaning o'yin vaziyatlariga ta'siri yuqori mahsuldorligi bilan belgilanishi mumkin.

Ushbu yondashuv o'qitish texnologiyasi bo'yicha ishlayotgan pedagoglarning o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilishini taqozo etadi.

Bu texnologiyani amalga oshirish an'anaviy sinf-dars tizimining qayta tashkil qilinishi talab etadi.

Yuqoridagilarga e'tiborni qaratish ta'lim muassasalarida fanlarni ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga olib keladi.

XULOSA Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkunki, oliy o'quv yurti talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati tarkibiy tuzilmasining muhim qismi bo'lgan tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyati maxsus metodikaning ishlab chiqilishi hamda uning g'oyalariga muvofiq ish ko'rishga bog'liq bo'ldi.

#### REFERENCES:

1. Matyokubova, S. (2022). Effectiveness of using authentic materials in teaching foreign languages. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 308-317.
2. Matëkubova, Ш. А. (2021). Халқаро ва миллий сертификат имтихонларига таёрланиш жараёнида замонавий технологияларнинг ўрни. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 2), 221-225.
3. Matëkubova, Ш. А. (2020). Альтернатива узбекских и английских пословиц. *Экономика и социум*, (1), 576-578.
4. Matyoqubova, S. A. (2020). O'zbek xalq maqollari va ingliz xalq maqollarining tarbiyaviy ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, (3), 911-915.
5. Matyakubova, S. A. (2018). Educational technologies in English language lessons. *Экономика и социум*, (10), 56-57.
6. Matyakubova, S. A. (2018). PHONETIC VARIABILITY. *Экономика и социум*, (10), 54-56.
7. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 756-759.
8. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 12(20), 1907-1913.



9. Kadyrova, O. K. (2021). Motivational basis for the formation of eastern and western literature Мотивационная основа формирования восточной и западной литературы. *Журнал филологических исследований*, 6(3), 17-22.
10. Kadyrova, O. (2021). Information and communication technologies in the process of teaching foreign languages as the basis of an innovative approach to learning. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 649-651.
11. Mamanovich, A. L. (2022). Pedagogical properties of environmental education and education in educational institutions. *Open Access Repository*, 8(12), 624-627.
12. Mamanovych, A. L. (2022). Ecological educational system the need to improve theoretical foundations and methodological foundations. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(12), 135-139.
13. Mamanovych, A. L., & Sharofiddin o'g'li, B. S. (2022). Environmental behavior change and students' environmental attitude. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(12), 140-144.
14. Абдуназаров, Л. М. (2018). Экология методологияси ва унинг миллий хусусиятлари. *ЎзМУ хабарлари*, 1(4), 26-28.
15. Abdunazarov, L. M. (2018). Issues on Teaching Ecology in National Continuous Education. *Eastern European Scientific Journal Germany*, 3(1), 265-270.
16. Абдуназаров, Л. М. (2016). Касбий таълимда экологик ўқув унинг таъминоти ва амалга жорий этиш. *Кадрлар тайёрлаш тизимида ўрта махсус касб-хунар таълимнинг ўрни ва ахамияти*, 1(1), 31-33.
17. Давлатова, М. А. (2022). Формирование логического мышления у учащихся начальных классов при решении экономических и статистических задач. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 194-198.
18. Mirxalilova, N. A., & Davlatova, M. A. (2022). TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari. *Academic research in educational sciences*, 3(9), 282-285.
19. Davlatova, M. A. (2022). Iqtisodiy va statistik masalalarni yechishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 309-314.
20. Холмуминов, АА, Ходжаева, НК, Шакарова, ДШ, Шерматов, БН, Хаккулов, ЖМ. (2017). Нановолоконные нетканые материалы полимеров с поверхностно-активными свойствами. *UzMU*, 2(2), 257-263.
21. Холмуминов, АА, Хаккулов, ЖМ, Ходжаева, НК, Шакарова, ДШ, Шерматов, БН (2017). Формирование биоактивного нанокompозита на поверхности металлического носителя. *UzMU*, 2(2), 252-257.

22. Сейитниязов, К. М. (2022). Традиционные географические названия. Экономика и социум, 11(102), 155-160.
23. Сейитниязов, К. М. (2022). Некоторые вопросы о Антропотопонимах. Международная конференция, 1(4), 4-8.
24. Сейитниязов, К. М. Некоторые вопросы о стандартизации топонимов Каракалпакии. Международная конференция, 1(12), 4-9.
25. Камбарова, Ш. А., & Абуназаров, Л. М. (2016). "Сплошная коллективизация": понятие и меры по её проведению в средней Азии. *современные подходы к трансформации концепций государственного регулирования и управления в социально-экономических системах* (pp. 89-91).
26. Kadirova, Z. Z. (2022). Lithosonyms used in the works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 10(10), 1907-1913.
27. Kadirova, Z. Z. (2022). Stable compounds in the works of Alisher Navai (example of periphrases). *NeuroQuantology*, 10(1), 1899-1906.
28. Мирсаатов, Р. М., Очилов, О., Абдуллаев, Ж. Э. У., & Кенжаев, А. А. (2019). Устройство для определения шелконосности коконов без их взрезки. *European science*, (6 (48)), 30-36.
29. Очилов, О. (2018). Фотоупругая и ростовая оптическая анизотропия эпитаксиальных пленок редкоземельных ферритов-гранатов. *Вестник науки и образования*, 1(1 (37)), 5-8.